

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№3

2026
MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 145 sahifa.
2026-yil, mart

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RNI	24
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI VA SOLIQ TUSHUMLARI DINAMIKASI: O'ZBEKISTON MISOLIDA ILMIY TAHLIL	30
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI KELITIRIB CHIQUARUVCHI ASOSIY OMILLAR HAMDA IQTISODIYOTGA TA'SIRI	37
Toxtabayev Oybek Odilovich	
QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV	42
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTON GLOBAL-IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI	48
Kuvatova Oliya Sheraliyevna	
QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI MOLİYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	54
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR DAVRIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI	61
Yangiboyev F.B.	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ERTA ANIQLASH VA BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN RISK-INDEKS MODELİ	68
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich, Rajabov Shoxrux Suvon o'g'li	
RUX VA QO'RG'OSHINNI SELEKTIV AJRATIB OLISHNI KOMBINATSIYALASH TEXNOLOGIYASI VA NAZARIYASI.....	74
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Haqberdiyev Dilshod Qodir o'g'li	
UY-JOY QURILISHI HAJMINI UZOQ MUDDATLI PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	81
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQLIM VA TABIIY OFATLAR NATIJASIDA YETKAZILDAN TALOFATLARNI DAVLAT TOMONIDAN KOMPENSATSIYA QILISH MEKANIZMI.....	85
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
AHOLI MOLİYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MEKANIZMLARI.....	90
Abdug'aniyev Uchqun Habibulla o'g'li	
O'ZBEKISTON QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA TENDENSIYALARI	96
Musaeva Aynura Abayxolievna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL INFRASTRUCTURE TRANSFORMATION IN THE CONTEMPORARY ENVIRONMENT.....	104
Normurodov Khusan Eshmakhmatovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI BAHOLASH YO'LLARI	108
Begamov S.X.	
DEBITORLIK QARZLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI	112
Normatova Gulmira Xayrullaevna	



SOLIQLARNI PROGNOZLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....	118
Ergashov Jamshid Ashurovich	
MEHNAT XARAJATLARI HISOBİ: NAZARIY ASOSLAR, USULLAR VA BOSHQARUVDAGI AHAMIYATI	126
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
KORPORATIV XIZMATLARNING BANK FOYDASIGA TA'SIRI: KOMISSION VA FOIZLI DAROMADLAR TAHLILI	131
Qurbonov Abror Abdullayevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI.....	136
Djamalov G'ofir Oribjanovich	

TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIIY MEXANIZMLARI

Djamalov G'ofir Oribjanovich

Namangan viloyat hokimining qurilish,
kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik,
ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari

E-mail: gdjamalov1@umail.uz

ORCID: [0000-0003-1927-950X](https://orcid.org/0000-0003-1927-950X)

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari hamda amaliy mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqotda kredit portfeli sifati, kredit siyosati elementlari va risklarni boshqarish tizimi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tizimli yondashuv asosida o'rganilgan. Muammoli kreditlar ulushining ortishi banklarning likvidligi, kapitallashuv darajasi va moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri sifatida baholangan. Shuningdek, kredit monitoringi, skoring modellari, restrukturizatsiya mexanizmlari hamda erta ogohlantirish tizimlarining samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida muammoli kreditlarni boshqarishda riskka yo'naltirilgan kredit siyosatini takomillashtirish, portfel diversifikatsiyasini kuchaytirish hamda raqamli nazorat mexanizmlarini joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: muammoli kreditlar, kredit portfeli sifati, kredit siyosati, risklarni boshqarish, restrukturizatsiya, bank barqarorligi, kredit monitoringi, erta ogohlantirish tizimi, kapitallashuv darajasi.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations and practical mechanisms for improving the effectiveness of non-performing loan management in commercial banks. The study analyzes the interrelation between loan portfolio quality, credit policy components, and the risk management system based on a systemic approach. The growth of non-performing loans is assessed as a key factor influencing banks' liquidity, capitalization level, and financial stability. Particular attention is paid to the impact of credit monitoring, scoring models, restructuring mechanisms, and early warning systems on performance indicators. The research substantiates that enhancing risk-oriented credit policy, strengthening portfolio diversification, and implementing digital control mechanisms contribute significantly to increasing the efficiency of problem loan management. Scientific and practical recommendations aimed at ensuring banking sector stability are proposed.

Keywords: non-performing loans, loan portfolio quality, credit policy, risk management, restructuring, financial stability, credit monitoring, early warning system, capitalization.

Аннотация. В статье исследуются теоретико-методологические основы и практические механизмы повышения эффективности управления проблемными кредитами в коммерческих банках. На основе системного подхода проанализирована взаимосвязь качества кредитного портфеля, элементов кредитной политики и системы управления рисками. Рост доли проблемных кредитов рассматривается как один из ключевых факторов, влияющих на ликвидность, уровень капитализации и финансовую устойчивость банков. Особое внимание уделено влиянию мониторинга кредитов, скоринговых моделей, механизмов реструктуризации и систем раннего предупреждения на показатели эффективности. Обоснована необходимость совершенствования риск-ориентированной кредитной политики, усиления диверсификации портфеля и внедрения цифровых инструментов контроля. Разработаны научно-практические рекомендации по обеспечению устойчивости банковского сектора.

Ключевые слова: проблемные кредиты, качество кредитного портфеля, кредитная политика, управление рисками, реструктуризация, финансовая устойчивость, кредитный мониторинг, система раннего предупреждения, капитализация.



KIRISH

Bank tizimi milliy iqtisodiyotning moliyaviy infratuzilmasi sifatida real sektor subyektlarini kredit resurslari bilan ta'minlash, investitsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqarorlashtirishda muhim strategik funksiyani bajaradi. Tijorat banklari faoliyatida kredit operatsiyalari asosiy daromad manbai bo'lib, kredit portfeli hajmi va sifati bankning rentabelligi, likvidligi hamda kapitallashuv darajasini belgilovchi hal qiluvchi omillardan hisoblanadi. Kredit portfelining sifat jihatdan yomonlashuvi, xususan, muammoli kreditlar ulushining ortishi bank balansining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, foiz daromadlari qisqarishiga olib keladi hamda zaxiralar shakllantirish hajmini oshiradi. Natijada banklarning kapital yetariligi ko'rsatkichlari bosim ostida qoladi va ularning riskka chidamliligi pasayadi. Shu bois muammoli kreditlarni samarali boshqarish masalasi bank tizimi barqarorligini ta'minlashning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda global moliyaviy bozorlarda kuzatilayotgan beqarorlik, pandemiya oqibatlari, tashqi savdo sharoitlarining o'zgarishi hamda geosiyosiy risklarning kuchayishi kredit risklari darajasining ortishiga sabab bo'ldi. Real sektor korxonalarining moliyaviy oqimlari beqarorlashuvi, to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichlarining yomonlashuvi va qarzdorlik yukining ortishi tijorat banklari kredit portfelida muammoli kreditlar ulushining oshishiga olib keldi. Bu jarayon bank tizimida risklarni boshqarish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish va ularni zamonaviy talablarga moslashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. Xususan, kreditlash jarayonida risklarni baholash sifati, qarz oluvchilarning moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish hamda kredit monitoringini doimiy asosda amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tijorat banklarida kredit siyosati muammoli kreditlarni boshqarishning asosiy institutsional instrumenti hisoblanadi. Kredit siyosatining aniq mezonlarga asoslanishi, risklarni segmentatsiya qilish, qarz oluvchilarni skoring tizimi orqali baholash va kredit limitlarini oqilona belgilash muammoli kreditlar ulushini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kredit portfelini tarmoqlar va hududlar kesimida diversifikatsiya qilish risklarni taqsimlash imkonini beradi hamda konsentratsion risklarning oldini oladi. Kredit siyosatining samaradorligi nafaqat kredit ajratish bosqichida, balki kreditdan keyingi monitoring, qayta tuzish (restrukturizatsiya) va undirish mexanizmlarining izchilligida ham namoyon bo'ladi. Shuning uchun kredit siyosatini takomillashtirish muammoli kreditlarni boshqarish samaradorligini oshirishning markaziy omili sifatida qaraladi [1].

Milliy bank tizimi rivojlanishining hozirgi bosqichida kreditlash hajmlarining kengayishi iqtisodiy faollikni rag'batlantirish bilan birga, risklarni boshqarish tizimiga qo'shimcha yuklama ham yuklamoqda. Kredit ekspansiyasi sharoitida risklarni baholash mezonlarining yetarlicha puxta ishlab chiqilmaganligi yoki monitoring mexanizmlarining sustligi kredit portfelining sifat jihatdan yomonlashuviga olib kelishi mumkin. Bu esa muammoli kreditlar ulushining ortishi orqali banklarning moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, kredit siyosati samaradorligini oshirish, riskka yo'naltirilgan boshqaruv yondashuvini joriy etish hamda raqamli nazorat va erta ogohlantirish tizimlarini keng qo'llash ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb vazifadir.

Mazkur tadqiqotning maqsadi tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslarini chuqurlashtirish va kredit siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsad doirasida kredit portfeli sifati va bank moliyaviy barqarorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash, kredit siyosati elementlarining muammoli kreditlar dinamikasiga ta'sirini baholash hamda risklarni proaktiv boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish vazifalari belgilangan. Shuningdek, kredit monitoringi samaradorligini oshirish va restrukturizatsiya mexanizmlarini takomillashtirishning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi [2].

Tadqiqot obyekti sifatida tijorat banklarining kredit portfeli va muammoli kreditlarni boshqarish tizimi tanlangan bo'lib, tadqiqot predmeti kredit siyosati samaradorligi hamda uning muammoli kreditlar darajasiga ta'sirini belgilovchi iqtisodiy munosabatlarni qamrab oladi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy baholash, dinamik ko'rsatkichlar tahlili hamda risklarni boshqarishning zamonaviy konsepsiyalariga asoslanadi. Ilmiy yangilik shundan iboratki, muammoli kreditlarni boshqarish samaradorligi kredit siyosatining moslashuvchanligi, monitoring chuqurligi va raqamli boshqaruv instrumentlari integratsiyasi bilan kompleks ravishda asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari bank tizimida kredit portfeli sifatini yaxshilash, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Muammoli kreditlar (non-performing loans) masalasi bank risklarini boshqarish nazariyasida alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan bo'lib, u kredit siyosati, prudensial tartibga solish va moliyaviy barqarorlik bilan bevosita bog'liq holda tadqiq etiladi. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda muammoli kreditlarning shakllanish sabablari, ularning bank rentabelligi va kapital yetarililigiga ta'siri, shuningdek, ularni kamaytirish mexanizmlari kompleks yondashuv asosida o'rganilgan. Ayniqsa, 2008-yilgi global moliyaviy inqirozdan so'ng NPL muammosi bank

tizimi barqarorligining asosiy indikatorlaridan biri sifatida baholanmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muammoli kreditlar ulushining oshishi banklarning kreditlash imkoniyatlarini cheklaydi, risk xarajatlarini oshiradi va iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar kredit siyosatini takomillashtirish hamda risklarni boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan [3].

Yevropa bank tizimi misolida olib borilgan empirik tadqiqotlarda Louzis D.P., Vouldis A.T. va Metaxas V.L. muammoli kreditlar darajasiga makroiqtisodiy omillar bilan bir qatorda bank ichki boshqaruv sifati ham sezilarli ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan. Ularning fikricha, iqtisodiy pasayish davrida kredit portfeli sifati tez yomonlashadi, biroq kreditlash standartlarining qat'iyligi va risklarni baholash tizimining samaradorligi NPL darajasini nazorat ostida ushlab turishga xizmat qiladi. Mualliflar kredit siyosatini konservativ va riskka yo'naltirilgan tamoyillar asosida shakllantirish muammoli kreditlarni kamaytirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi [4].

Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari tajribasini o'rgangan Beck R., Jakubik P. va Piloiu A. tadqiqotlarida muammoli kreditlarning o'sishi ko'p jihatdan kredit ekspansiyasi sur'atlari va makroprudensial nazorat darajasiga bog'liq ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Ularning ilmiy xulosalariga ko'ra, kredit bozorining haddan tashqari kengayishi, ayniqsa iqtisodiy o'sish davrida, risklarni noto'g'ri baholash va kredit standartlarining yumshatilishiga olib keladi. Natijada iqtisodiy pasayish bosqichida muammoli kreditlar keskin ortadi. Bu yondashuv kredit siyosatida ehtiyotkorlik va barqarorlik tamoyillariga amal qilish zarurligini asoslaydi [5].

Bank boshqaruvi sifati va kredit portfeli barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlik masalasi Berger A.N. va DeYoung R. tomonidan ishlab chiqilgan "yomon boshqaruv gipotezasi" doirasida yoritilgan. Mualliflar bank menejmenti samaradorligi past bo'lgan sharoitda kredit monitoringi yetarli darajada amalga oshirilmasligi va bu muammoli kreditlar ulushining oshishiga olib kelishini empirik jihatdan isbotlagan. Ushbu nazariy yondashuv kredit siyosati va korporativ boshqaruv tizimini integratsiyalashtirish holda takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi [6].

Kredit risklarini miqdoriy baholash va muammoli kreditlarni prognozlash masalalari Frachot A., Georges P. va Roncalli T. tomonidan ishlab chiqilgan Loss Distribution Approach modeli asosida chuqur o'rganilgan. Mazkur yondashuv kredit portfeli bo'yicha yo'qotishlarni statistik taqsimot asosida baholash imkonini beradi hamda zaxira siyosatini shakllantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy tadqiqotlarda shuningdek, skoring modellari, stress-test mexanizmlari va erta ogohlantirish indikatorlaridan foydalanish muammoli kreditlarni boshqarish samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida e'tirof etiladi [7].

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham bank kreditlari sifati va muammoli kreditlar masalasi bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, O'zbekiston bank tizimida kredit risklarini boshqarish, kredit portfeli sifati va bank barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlik masalalari mahalliy tadqiqotlarda tahlil qilingan. Ushbu ishlarda kredit siyosatini takomillashtirish, risklarni baholashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish hamda prudensial me'yorlarni kuchaytirish muammoli kreditlarni kamaytirishning asosiy yo'nalishlari sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, milliy bank amaliyotini o'rgangan ayrim tadqiqotchilar kredit monitoringini kuchaytirish, qarz oluvchilarning moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish va restrukturizatsiya mexanizmlarini takomillashtirish orqali muammoli kreditlar ulushini pasaytirish mumkinligini ilmiy asoslab bergan. Ularning xulosalariga ko'ra, kredit siyosati samaradorligi bank ichki nazorat tizimi, risk-menejment bo'limlari faoliyati va raqamli texnologiyalarni qo'llash darajasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Umuman olganda, xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, muammoli kreditlarni boshqarish samaradorligi kredit siyosatining sifat darajasi, risklarni aniqlash va baholash mexanizmlarining mukammalligi hamda monitoring tizimining uzluksizligi bilan belgilanadi. Biroq mavjud tadqiqotlarda kredit siyosati elementlarini kompleks ravishda baholash va ularning muammoli kreditlar dinamikasiga ta'sirini tizimli integratsiyada o'rganish yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish samaradorligini baholash va kredit siyosatini takomillashtirish yo'nalishlarini ilmiy asoslashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks va ko'p bosqichli metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy konsepsiyalar, empirik tahlil usullari va iqtisodiy-matematik modelashtirish elementlari uyg'unligiga asoslanadi. Muammoli kreditlar darajasi ko'p omilli iqtisodiy jarayon natijasi bo'lganligi sababli, uni o'rganishda tizimli yondashuv asosiy metod sifatida tanlandi. Ushbu yondashuv kredit siyosati, makroiqtisodiy muhit, bank ichki boshqaruvi va risk-menejment mexanizmlarining o'zaro ta'sirini yaxlit tizim sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Nazariy-metodologik bosqichda muammoli kreditlarning iqtisodiy mohiyati, ularning shakllanish sabablari va kredit siyosati bilan bog'liqligi ilmiy manbalar asosida umumlashtirildi. Induksiya usuli orqali alohida banklar amaliyotidan umumiy xulosalar chiqarildi, deduksiya yordamida esa mavjud nazariy qarashlar asosida



muammoli kreditlar dinamikasiga ta'sir etuvchi omillar aniqlashtirildi. Tahlil va sintez metodlari orqali kredit siyosati elementlari — kreditlash mezonlari, qarz oluvchilarni baholash tizimi, garov siyosati, kredit monitoringi hamda restrukturizatsiya tartib-qoidalar — tizimli ravishda guruhlashtirildi va ularning o'zaro bog'liqligi ochib berildi. Qiyosiy tahlil yordamida xorijiy bank amaliyoti va milliy bank tizimi tajribasi o'rtasidagi farqlar aniqlanib, samaradorlikka ta'sir qiluvchi omillar baholandi [8].

Empirik tadqiqot bosqichida tijorat banklarining kredit portfeli ko'rsatkichlari asosida iqtisodiy-statistik tahlil amalga oshirildi. Muammoli kreditlar ulushi, kredit portfeli hajmi, zaxiralash darajasi, kapital yetarliligi koeffitsienti va aktivlar rentabelligi o'rtasidagi bog'liqlik dinamik qatorlar tahlili asosida o'rganildi. Vaqt qatori usuli orqali muammoli kreditlar darajasining o'zgarish tendensiyasi aniqlanib, kredit siyosatidagi o'zgarishlar bilan o'zaro mosligi baholandi. Korrelyatsion tahlil yordamida kredit siyosati samaradorligi indikatorlari va NPL darajasi o'rtasidagi bog'lanish darajasi aniqlanib, regressiya modeli orqali ularning funksional munosabati matematik ifodada asoslandi.

Tadqiqot doirasida risklarni miqdoriy baholashning zamonaviy yondashuvlari ham qo'llanildi. Xususan, kredit portfelining diversifikatsiya darajasi, kredit konsentratsiyasi indeksi, zaxiralash koeffitsienti va kredit monitoringi intensivligi kabi ko'rsatkichlar hisoblab chiqildi. Muammoli kreditlar ehtimolini baholashda ssenariy tahlili va stress-test elementlari qo'llanilib, makroiqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi bank barqarorligiga qanday ta'sir ko'rsatishi prognoz qilindi. Bu yondashuv banklarning riskka chidamliligini aniqlash va ehtimoliy yo'qotishlarni oldindan baholash imkonini berdi [9].

Tadqiqot ma'lumotlar bazasi sifatida tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari, rasmiy statistik ma'lumotlar va prudensial ko'rsatkichlar ishlatildi. Ma'lumotlarni qayta ishlashda iqtisodiy-matematik modellashtirish, grafik tahlil va indekslash usullari qo'llanildi. Natijalarning ishonchligini ta'minlash maqsadida ko'rsatkichlar o'zaro solishtirilib, ularning mantiqiy izchilligi tekshirildi. Umuman olganda, qo'llanilgan metodologik yondashuv muammoli kreditlarni boshqarish samaradorligini kompleks ravishda baholash, kredit siyosati elementlarini chuqur tahlil qilish hamda ilmiy asoslangan amaliy takliflar ishlab chiqish imkonini berdi. Ushbu metodologiya bank tizimida risklarni proaktiv boshqarish va kredit portfeli sifatini yaxshilashga qaratilgan ilmiy xulosalarni shakllantirish uchun mustahkam nazariy hamda empirik asos yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Muammoli kreditlarni boshqarish samaradorligini real baholash uchun kredit siyosati “qog'ozdagi qoida” sifatida emas, balki portfel sifatini amalda o'zgartiradigan boshqaruv mexanizmi sifatida ko'riladi. Bunda asosiy e'tibor NPL ulushi, NPL hajmi, kreditlar qoldig'i va banklar kesimidagi tafovutlar kabi indikatorlar orqali siyosat natijasini o'lchashga qaratiladi. O'zbekiston Markaziy banki statistik ma'lumotlari bank tizimida muammoli kreditlar ulushi yillar bo'yicha bir tekis emasligini, ayrim davrlarda keskin oshish kuzatilganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2022-yil boshidagi holat NPL ulushi bo'yicha “cho'qqi” davr sifatida ajralib turadi. Shu sababli tahlilda 2021–2025-yillar kesimida aynan rasmiy internet manbalaridagi raqamlar asosida trendlar ochib beriladi.

2021-yil 1-yanvar holatida bank tizimida jami kreditlar qoldig'i 276 975 mlrd so'm, muammoli kreditlar 5 785 mlrd so'm va NPL ulushi 2,1% bo'lgan. Davlat ulushi mavjud banklar kesimida kreditlar 244 484 mlrd so'm, NPL 5 168 mlrd so'm va ulush 2,1% darajasida qayd etilgan. Bu davrda NPL ko'rsatkichi nisbatan past bo'lib, kredit siyosatida risklarni baholash mezonlari va kredit intizomi “keskin bosim” ostida bo'lmaganini anglatadi. Biroq NPLning pastligi doim ham risk pastligini to'liq ifodalamaydi, chunki kreditlar sifati ko'pincha monitoringning chuqurligi va tasniflash intizomiga ham bog'liq bo'ladi. Shunga qaramay, 2021-yil boshidagi raqamlar keyingi yillardagi o'zgarishlar uchun muhim bazaviy nuqta hisoblanadi.

2022-yil 1-yanvar holatida NPL indikatorlari keskin yomonlashgani ko'rinadi: jami kreditlar 326 386 mlrd so'm, muammoli kreditlar 16 974 mlrd so'm, NPL ulushi 5,2% bo'lgan. Davlat ulushi mavjud banklarda esa kreditlar 280 074 mlrd so'm, NPL 15 069 mlrd so'm, ulush 5,4% darajasiga chiqqan. Bu sakrash kredit siyosati samaradorligini qayta ko'rib chiqish zarur bo'lgan davrni bildiradi, chunki NPL ulushining 2,1% dan 5,2% ga chiqishi kredit berishdagi saralash (underwriting) va kreditdan keyingi monitoring (follow-up) mexanizmlarida uzilishlar bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Amaliy jihatdan bunday holat odatda kredit ekspansiyasi, maqsadli kreditlash ulushining oshishi, garov baholashdagi yumshash yoki qarz oluvchi naqd oqimlarini baholashdagi xatolar bilan bog'liq bo'ladi. Demak, 2022-yil boshidagi raqamlar kredit siyosatini riskka yo'naltirish va “erta ogohlantirish” indikatorlarini kuchaytirish bo'yicha qat'iy xulosalar chiqarishga asos beradi.

2023-yil 1-yanvar holatida tizim bo'yicha NPL ulushi 3,6% ga pasaygan: jami kreditlar 390 049 mlrd so'm, muammoli kreditlar 13 992 mlrd so'm. Davlat ulushi mavjud banklarda kreditlar 324 681 mlrd so'm, NPL 12 643 mlrd so'm va ulush 3,9% bo'lgan. Bu pasayish kredit siyosatida saralash mezonlari qayta kuchaytirilgani yoki muammoli qarzlarni qayta tuzish va undirish mexanizmlari faollashgani bilan izohlanishi mumkin. Biroq NPLning pasayishi bilan birga “kuzatuvdagi kreditlar” (watch loans) ulushi ham muhim: Markaziy bankning moliyaviy barqarorlik hisobotida 2023-yil yakunida watch loans va NPLning jamlangan ulushi qariyb 20% ga

yetgani, bu ko'rsatkich 2022-yil yakuniga nisbatan 4 foiz punktga oshgani qayd etiladi. Bu holat kredit siyosati "rasmiy NPL"ni pasaytirgan taqdirda ham portfelida yashirin risklar saqlanib qolishi mumkinligini ko'rsatadi [10].

2024-yil 1-yanvar holatida tizim bo'yicha NPL ulushi 3,5% darajasida qayd etilgan: jami kreditlar 471 406 mlrd so'm, muammoli kreditlar 16 621 mlrd so'm. Davlat ulushi mavjud banklarda kreditlar 333 298 mlrd so'm, NPL 13 267 mlrd so'm, ulush 4,0% bo'lgan. Bu davrda umumiy ulush 3,5% bo'lsada, NPL hajmi (16 621 mlrd so'm) 2023-yil 1-yanvardagi 13 992 mlrd so'mdan yuqori, ya'ni kredit portfeli kengaygani sari muammoli qarzlarni "absolyut qiymatda" oshib borayotganini ko'rsatadi. Kredit siyosati samaradorligi aynan shunday sharoitda sinovdan o'tadi: portfel o'sishi davom etar ekan, sifat indikatorlari yomonlashmasligi kerak. Shuning uchun siyosatda sektor bo'yicha risk limitlar, garov diskontlari va DSCR kabi mezonlarni dinamik sozlash talab etiladi.

2025-yil 1-yanvar holatida tizim bo'yicha jami kreditlar 533 121 mlrd so'm, muammoli kreditlar 21 185 mlrd so'm va NPL ulushi 4,0% bo'lgan. Davlat ulushi mavjud banklarda kreditlar 366 731 mlrd so'm, NPL 14 344 mlrd so'm va ulush 3,9% qayd etilgan. Bu raqamlar 2024-yil 1-yanvardagi 3,5% dan 4,0% ga yomonlashuv borligini ko'rsatadi, shu bilan birga NPL hajmi ham 16 621 mlrd so'mdan 21 185 mlrd so'mga oshgan. Demak, kredit siyosati nuqtayi nazaridan 2024–2025 o'tish davrida riskga sezgir segmentlar bo'yicha saralash va monitoringni kuchaytirish zarurati kuchayadi. Ayniqsa, kreditlar tez o'sgan sharoitda "standartlar yemirilishi" (policy drift) riskini ichki audit va risk-funksiyaning mustaqil nazorati bilan jilovlash muhim bo'ladi (1-jadval).

1-jadval. Bank tizimida muammoli kreditlar dinamikasi (2021–2025-yillar, 1-yanvar holatiga, mlrd so'm va foizda)

Yil (1-yanvar)	Jami kreditlar, mlrd so'm	Muammoli kreditlar (NPL), mlrd so'm	NPL ulushi, %	Davlat ulushi mavjud banklar kreditlari, mlrd so'm	Davlat ulushi mavjud banklar NPL, mlrd so'm	Davlat ulushi mavjud banklar NPL ulushi, %
2021	276 975	5 785	2,1	244 484	5 168	2,1
2022	326 386	16 974	5,2	280 074	15 069	5,4
2023	390 049	13 992	3,6	324 681	12 643	3,9
2024	471 406	16 621	3,5	333 298	13 267	4,0
2025	533 121	21 185	4,0	366 731	14 344	3,9

Jadvaldan ko'rinadiki, NPL ulushi 2021-yildagi 2,1% dan 2022-yilda 5,2% gacha keskin oshgan, 2023–2024-yillarda 3,5–3,6% diapazonida yumshagan, 2025-yil boshida esa 4,0% ga qayta ko'tarilgan. Bu dinamika kredit siyosati samaradorligini "statik" baholash noto'g'ri ekanini ko'rsatadi: siyosat doim makrosharoit va portfel tarkibi o'zgarishiga mos ravishda yangilanib borishi kerak. Ayniqsa, 2022-yildagi keskin yomonlashuv kredit siyosatida risk appetit, limitlar va qarz oluvchini baholash mezonlari qay darajada bo'lganini chuqur audit qilishni talab qiladi. Shu bilan birga, 2023–2024 yillardagi nisbiy barqarorlashuv muammoli kreditlarni boshqarish bo'yicha tashkiliy choralar (monitoring, restrukturizatsiya, undirish) kuchaytirilgan bo'lishi ehtimolini oshiradi. Biroq 2025-yil boshidagi qayta o'sish riskli segmentlarda standartlarni yanada qat'iy lashtirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.


Kredit siyosati samaradorligi amalda uchta nuqtada "daromad" beradi: muammoli kreditlar oqimini kamaytiradi, muammoli qarzlarni erta bosqichda aniqlaydi va tiklash (recovery) xarajatlarini qisqartiradi. Agar siyosat faqat kredit berish bosqichiga urg'u bersa-yu, monitoring va erta ogohlantirish mexanizmlari sust bo'lsa, NPL keyinchalik baribir ortadi. Markaziy bankning 2023-yil moliyaviy barqarorlik hisobotida watch loans va NPLning jamlangan ulushi qariyb 20% ga yetgani qayd etilgani aynan "erta bosqich risk" muammosiga ishora qiladi. Ya'ni kredit siyosati faqat NPLni (90+ kun) emas, balki "muammoga yaqin" kreditlar qatlamini ham boshqarishi kerak. Buning uchun siyosatga EWS indikatorlari (naqd oqim pasayishi, aylanma kapital sikli cho'zilishi, garov qiymati pasayishi, sektor risklari kuchayishi) formal talablari kiritiladi [11].

2025-yilning o'zida ham NPL ko'rsatkichi vaqt bo'yicha o'zgarishini ko'rish mumkin: Markaziy bank ma'lumotiga ko'ra, 2025-yil 1-fevral holatida NPL ulushi 4,5% (kreditlar 533 989 mlrd so'm, NPL 23 768 mlrd so'm) bo'lgan, 2025-yil 1-iyul holatida esa NPL ulushi 3,8% (kreditlar 575 245 mlrd so'm, NPL 21 870 mlrd so'm) darajasiga tushgan. Bu o'zgarish kredit portfeli o'sishi fonida NPLning absolyut hajmi ham pasaygani bilan izohlanadi, ya'ni muammoli qarzlarni bo'yicha undirish yoki qayta tuzish natijalari bo'lishi ehtimoli mavjud. Shu bilan birga, bunday pasayish barqaror trend ekanini tasdiqlash uchun kamida bir necha chorak kuzatuv va restrukturizatsiya qilingan kreditlarning qayta NPLga tushish ko'rsatkichlari ham talab etiladi. Kredit siyosati aynan shu nuqtada "sifat filtri" rolini o'ynaydi: restrukturizatsiya real tiklanishga xizmat qilyaptimi yoki faqat statistik ko'rsatkichni yaxshilayaptimi — buni siyosat KPllari orqali o'lchash kerak.

Muammoli kreditlarni boshqarishda banklar kesimidagi tafovutlar kredit siyosati dizayni va ijro intizomi qay darajada farq qilishini ochib beradi. Bir xil makro muhitda ayrim banklarda NPL ulushi past bo'lsa, boshqalarida yuqori bo'lishi portfel tarkibi, mahsulot segmentlari (ipoteka, iste'mol, SME), garov siyosati va monitoring



chastotasi bilan bevosita bog'liq. Shu sababli siyosatni takomillashtirish "hamma bankka bir xil retsept" emas, balki risk profili bo'yicha differensial yondashuvni talab qiladi. Yuqori NPL segmentlarida underwriting va limitlar keskinroq, past NPL segmentlarida esa o'sish davrida standartlar yemirilishini oldini oluvchi nazorat kuchli bo'lishi kerak. Eng muhimi, siyosat kredit qo'mitasi darajasida emas, kuzatuv kengashi darajasida ham KPllar orqali nazorat qilinadigan boshqaruv instrumentiga aylanishi lozim (1-rasm).



1-rasm. Tijorat banklarida kredit siyosati instrumentlari va muammoli kreditlarni boshqarish samaradorligi o'rtasidagi integrallashgan sabab-oqibat modeli

Mazkur rasmda tijorat banklarida kredit siyosati instrumentlari bilan muammoli kreditlarni boshqarish natijalari o'rtasidagi uzviy sabab-oqibat bog'liqligi konseptual model asosida ifodalangan bo'lib, unda kirish filtri (qarz oluvchini tanlash va kredit limitlari), jarayon bosqichi (monitoring va erta ogohlantirish) hamda chiqish mexanizmlari (restrukturizatsiya, undirish va zaxiralash) yagona boshqaruv zanjiri sifatida ko'rsatilgan. Modelga ko'ra, kreditlashning dastlabki bosqichida riskka yo'naltirilgan saralash mexanizmlarining samaradorligi muammoli kreditlar oqimini kamaytiradi, monitoring va erta ogohlantirish tizimlari esa muammolarni dastlabki bosqichda aniqlash orqali NPLga aylanish ehtimolini pasaytiradi, chiqish bosqichidagi samarali restrukturizatsiya va undirish strategiyalari esa qarzlarni tiklash darajasini oshiradi. Shu tariqa, rasm kredit siyosatini muammoli kreditlarni boshqarishning integrallashgan va ko'p bosqichli boshqaruv mexanizmi sifatida talqin etadi hamda uning bank tizimi barqarorligiga ta'sirini nazariy jihatdan asoslab beradi [12].

Konseptual model nuqtayi nazaridan kredit siyosati instrumentlari uch qatlamda ishlaydi: kirish filtri (qarz oluvchini tanlash va limitlash), jarayon (monitoring va erta ogohlantirish), chiqish (restrukturizatsiya, undirish va zaxiralash bilan muvofiqlik). Agar kirish filtri kuchli bo'lsa, NPL oqimi (inflow) pasayadi; monitoring kuchli bo'lsa, muammo erta aniqlanadi va "cure" ehtimoli oshadi; chiqish bloki kuchli bo'lsa, recovery tezlashadi va yo'qotishlar kamayadi. O'zbekiston tajribasida 2022-yildagi sakrashdan keyin 2023–2024-yillarda ulushning pasayishi shu qatlamlarning kamida bir qismi kuchayganini taxmin qilishga asos beradi, biroq 2025-yil boshida ulushning 4,0% ga chiqishi siyosatning ayrim segmentlarda hali ham riskka sezgir emasligini ko'rsatishi mumkin. Demak, model bo'yicha boshqaruv har bir qatlamda aniq KPllar bilan mustahkamlanishi shart [13].

Amaliy natijadorlikni oshirish uchun siyosatda "o'lchanadigan mezonlar" aniq belgilanishi kerak. Masalan, kredit berish bosqichida DSCR (qarzga xizmat ko'rsatish qobiliyati), LTV (garov qiymatiga nisbatan kredit), DTI (daromadga nisbatan qarz) kabi limitlar; monitoring bosqichida 30 kunlik kechikishdan 90+ ga o'tish ulushi, watchlist ulushi va EWS triggerlari; undirish bosqichida cure rate, recovery rate va hal qilish muddati (time to resolution) kabi ko'rsatkichlar qo'llanadi. Bunday indikatorlar bo'lmasa, NPL ulushi vaqtincha pasayishi mumkin, ammo portfelda yashirin risk saqlanib qoladi va keyinchalik yanada qimmat "tozalash" talab etiladi. Markaziy bankning 2023-yil hisobotida watch loans va NPL jamlanmasi oshgani qayd etilgani aynan shu xavfni kuchaytiradi. Shuning uchun siyosatda "watch" portfelni boshqarish alohida reglament va alohida mas'uliyat zonasi bo'lishi kerak [14].

Banklar kesimida 2025-yil 1-yanvar holatidagi ma'lumotlar muammoli kreditlar konsentratsiyasini ko'rsatib beradi va siyosatni segmentlash zarurligini aniqroq qiladi. Masalan, ayrim yirik banklarda NPL ulushi 3% atrofida bo'lsa, ayrim banklarda 8–10% diapazonga chiqadi. Bunday tafovutlar odatda ipoteka va uzoq muddatli kreditlar ulushi, muayyan tarmoqlarga konsentratsiya, shuningdek, restrukturizatsiya siyosatining qat'iyligi bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli siyosat "bitta standart"dan ko'ra "risk-matritsa"ga tayangan holatda qayta qurilishi maqsadga muvofiq: tarmoq, mahsulot, valyuta va muddat kesimida limitlar qayta taqsimlanadi.

Natijada muammoli kreditlar boshqaruvi faqat undirish bo'limi vazifasi bo'lib qolmaydi, balki kreditlashdan oldingi bosqichda ham real profilaktikaga aylanadi [15,16] (2-jadval).

2-jadval. 2025-yil 1-yanvar holatida tanlangan banklarda NPL ko'rsatkichlari (mlrd so'm va foizda)

Bank nomi	Kreditlar, mlrd so'm	Muammoli kreditlar (NPL), mlrd so'm	NPL ulushi, %
O'zmilliybank	108 014	3 275	3,0
O'zsanoatqurilishbank	65 498	1 844	2,8
Agrobank	59 436	2 903	4,9
Asaka bank	38 717	1 752	4,5
Xalq banki	29 620	1 253	4,2
Biznesni rivojlantirish banki	22 527	1 915	8,5
Ipoteka-bank	35 094	3 577	10,2
Kapitalbank	31 584	1 437	4,5
Hamkorbank	19 178	319	1,7
Orient Finans bank	12 565	23	0,2

Jadval banklar kesimida siyosat samaradorligini "taqqoslash" imkonini beradi: masalan, NPL ulushi 10,2% bo'lgan bankda kredit siyosati kirish filtri va monitoring qat'iyligini kuchaytirish bilan birga portfelni qayta balanslash (riskli segmentlarni limitlash)ni ham talab qiladi. NPL ulushi 0,2–1,7% bo'lgan banklarda esa asosiy xavf — tez o'sish davrida kredit standartlarining bosqichma-bosqich yumshab ketishi, ya'ni riskning "sezilmas" yig'ilishi. Shuning uchun past NPL ko'rsatkichining o'zi siyosat mukammal degani emas, balki siyosatni barqaror ushlab turish uchun ichki audit va compliance nazoratini muntazam kuchaytirish zarurligini bildiradi. Yuqori NPL holatlarida esa recovery strategiyasi segmentlanishi, restrukturizatsiya "sifat filtri" orqali o'tkazilishi va qayta NPLga tushish (redefault) ko'rsatkichlari alohida nazorat qilinishi kerak [17].

Yuqoridagi raqamlar asosida umumiy xulosa shuki, 2021–2025-yillarda muammoli kreditlarni boshqarish samaradorligi kredit siyosatining moslashuvchanligi va ijro intizomi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. 2022-yildagi keskin yomonlashuv kredit berish standartlari va monitoring tizimida risk to'planishi bo'lganini ko'rsatadi, 2023–2024-yillardagi yumshash esa boshqaruv choralariining ma'lum natija berganini anglatadi. 2025-yil boshidagi 4,0% daraja va yil davomida 4,5% dan 3,8% gacha tebranish siyosatning segmentlar bo'yicha notekis ishlash ehtimolini kuchaytiradi. Shu sababli siyosatda "tarmoq va mahsulot" kesimidagi risk-limitlar, "watchlist" boshqaruvi, hamda restrukturizatsiya qilingan kreditlar uchun alohida kuzatuv rejimi majburiy standart sifatida mustahkamlanishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish samaradorligi kredit siyosatining mazmuni va uning amaliy ijro mexanizmlariga bevosita bog'liqdir. 2021–2024 va 2025-yillar kesimidagi rasmiy statistik ma'lumotlar NPL ulushining 2022-yilda keskin oshganini 2023 va 2024-yillarda nisbatan barqarorlashganini hamda 2025-yil boshida qayta o'sish tendensiyasi kuzatilganini ko'rsatdi. Bu holat kredit siyosati doimiy ravishda makroiqtisodiy sharoit va portfel tarkibidagi o'zgarishlarga moslashtirib borilishi zarurligini tasdiqlaydi. Kreditlar hajmi oshib borayotgan sharoitda muammoli kreditlar absolyut qiymatda ortishi tabiiy jarayon bo'lsa ham ulushning barqarorligi kredit siyosati sifati bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalari kredit siyosatining uch asosiy komponenti saralash monitoring va muammoli qarzlarni boshqarish bilan ishlash mexanizmlari muammoli kreditlar dinamikasiga kompleks ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Kredit berish bosqichida riskka yo'naltirilgan baholash mezonlarining qat'iyligi muammoli kreditlar oqimini kamaytiradi. Kreditdan keyingi nazorat mexanizmlarining kuchli bo'lishi esa muammolarni dastlabki bosqichda aniqlash imkonini beradi. Muammoli kreditlar bilan ishlash jarayonida samarali restrukturizatsiya va undirish mexanizmlari yo'qotishlarni minimallashtirishga xizmat qiladi hamda bank kapitaliga tushadigan bosimni kamaytiradi.

Olingan natijalarga asoslanib quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

Birinchi taklif kredit siyosatini riskka yo'naltirilgan arxitektura asosida qayta ko'rib chiqishdan iborat. Tarmoq mahsulot turi muddat va valyuta kesimida alohida risk limitlar belgilanishi zarur. Yuqori riskli segmentlarda garov qiymatiga nisbatan kredit ulushi hamda qarzgacha xizmat ko'rsatish koeffitsientlari bo'yicha qat'iy minimal talablar o'rnatilishi lozim. Bu muammoli kreditlar oqimini kamaytirishning asosiy profilaktik vositasi bo'lib xizmat qiladi.



Ikkinchi taklif kredit monitoringini kuchaytirish va erta ogohlantirish tizimini to'liq joriy etish bilan bog'liq. Kredit siyosatida qarz oluvchining moliyaviy ko'rsatkichlari naqd pul oqimi sektor risklari va garov qiymati muntazam ravishda qayta baholanib borilishi kerak. Muammoga yaqin kreditlarni alohida nazorat qilish mexanizmini joriy etish orqali muammoli kreditga aylanish ehtimoli kamayadi.

Uchinchi taklif restrukturizatsiya jarayonlarini sifat jihatdan takomillashtirishdan iborat. Qayta tuzilgan kreditlar bo'yicha alohida kuzatuv mexanizmi joriy etilishi hamda ularning qayta muammoli kreditga aylanish darajasi muntazam tahlil qilinishi lozim. Restrukturizatsiya real moliyaviy tiklanishga xizmat qilishi kerak aks holda u faqat statistik ko'rsatkichni yaxshilash vositasiga aylanib qoladi.

To'rtinchi taklif zaxiralash siyosatini risk darajasiga mos ravishda kuchaytirishdan iborat. Muammoli kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar konservativ baholanib kapital yetariligi ko'rsatkichlari bilan uyg'un holda boshqarilishi zarur. Bu bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Beshinchi taklif kredit siyosati samaradorligini baholash uchun aniq o'lchanadigan ko'rsatkichlar tizimini joriy etishdan iborat. Muammoli kreditlar oqimi ularning tiklanish darajasi muammoni hal qilish muddati va kuzatuvdagi kreditlar ulushi muntazam ravishda boshqaruv darajasida muhokama qilinishi lozim.

Umuman olganda muammoli kreditlarni boshqarish samaradorligini oshirish kredit siyosatini kompleks ravishda takomillashtirish bilan bog'liq. Kreditlash jarayonining barcha bosqichlari o'zaro integratsiyalashgan holda boshqarilgandagina bank portfeli sifati yaxshilanadi moliyaviy barqarorlik mustahkamlanadi hamda iqtisodiyotning real sektorini barqaror kreditlash imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Louzis D. P., Vouldis A. T., Metaxas V. L. Macroeconomic and bank specific determinants of non performing loans in Greece A comparative study of mortgage business and consumer loan portfolios // Journal of Banking and Finance, 2012, Vol. 36, Issue 4, pp. 1012–1027.
2. Beck R., Jakubik P., Piloju A. Non performing loans What matters in addition to the economic cycle // European Central Bank Working Paper Series, 2013, No. 1515.
3. Berger A. N., DeYoung R. Problem loans and cost efficiency in commercial banks // Journal of Banking and Finance, 1997, Vol. 21, Issue 6, pp. 849–870.
4. Frachot A., Georges P., Roncalli T. Loss distribution approach for operational risk // Groupe de Recherche Opérationnelle, Crédit Lyonnais Working Paper, 2001, pp. 1–45.
5. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for the management of credit risk // Bank for International Settlements, Basel, 2000.
6. Basel Committee on Banking Supervision. Sound credit risk assessment and valuation for loans // BIS Guidelines, Basel, 2006.
7. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan Financial sector assessment program technical note on banking sector stability // IMF Country Report, Washington DC, 2024.
8. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. Financial stability report 2023 // Tashkent, 2024.
9. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. Banking system statistics 2021 2022 2023 2024 2025 // Rasmiy statistik ma'lumotlar to'plami, Toshkent.
10. Sinkey J. F. Commercial bank financial management in the financial services industry // Prentice Hall, New Jersey, 2002.
11. Rose P. S., Hudgins S. C. Bank management and financial services // McGraw Hill, New York, 2013.
12. Mishkin F. S. The economics of money banking and financial markets // Pearson Education, Boston, 2016.
13. Kothari C. R. Research methodology Methods and techniques // New Age International Publishers, New Delhi, 2004.
14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarida kreditlash va aktivlar sifatini tasniflash to'g'risidagi nizom // Toshkent, amaldagi tahrir.
15. Karimov N. G., Tursunov B. O'zbekiston tijorat banklarida kredit riskini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2021, № 3, 45–56 b.
16. Raxmonov A. Tijorat banklarida muammoli kreditlar monitoringini takomillashtirish masalalari // Bank ishi va moliya, 2022, № 2, 27–35 b.
17. Abdurahmonov U. O'zbekiston bank tizimida muammoli kreditlarni boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari // Iqtisodiyot va ta'lim, 2023, № 4, 118–126 b.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100